


2025 yil 9-oylik yakunlari bo'yicha "Asia Alliance Bank" ATBga jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlar tahlili

2025-yil 9-oylik yakunlari bo'yicha "Asia Alliance Bank" aksiyadorlik tijorat banki faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslardan turli aloqa kanallari orqali jami 258 ta yozma va og'zaki murojaatlar kelib tushgan hamda devonxonadan ro'yxatdan o'tkazilgan. Ushbu murojaatlarning 63 tasi yozma va 184 elektron ko'rinishida bo'lib, 11 ta og'zaki murojaatlar bo'lgan. Turlari bo'yicha 216 ta ariza ko'rinishida, 39 ta shikoyat hamda 3 tasi taklif ko'rinishida bo'lgan.

2025-yil 9-oylik yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasiga kelib tushgan "Asia Alliance Bank" aksiyadorlik tijorat banki faoliyati bilan bog'liq jami 120 ta, 14 tasi to'gridan to'gri bank devonxonasiga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki orqali 46 ta, bank Raisi virtual qabulxonasiga 38 ta, Bosh Prokuratura "Ishonch telefoni" ga 3 ta, "Savdoni rivojlantirish kompaniyasi" AJ ning Eksportchilar markazidan 6 ta, bank veb sayti orqali 2ta, boshqa vazirlik idoralardan 18 ta hamda bankning "Ishonch telefoni" orqali 11 ta o'g'zaki murojaatlar kelib tushgan. Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bankda tashkil etilgan Ishchi guruh tomonidan mijozlar ishtirokida ko'rib chiqilganligi, mijozlarga tushuntirishlar berilganligi va xat mualliflariga o'rnatilgan tartibda yozma javob xatlari jo'natilgan.



2025-yil 9-oylikda kelib tushgan murojaatlar o'z vaqtida ko'rib chiqildi va muddatida nazoratdan echilgan. Muddati o'tgan murojaatlar mavjud emas.